Ustun va harflar kesishgan joyga **katak** deb atash qabul qilingan. **Katak** ma'lumotlar saqlovchi asosiy qism hisoblanadi. Har bir katak o'z belgisiga ega. Bu belgi ustun va qator nomeridan tashkil topadi va katak adresi yoki katak ko'rsatkichi ko'rinishida foydalaniladi.

Misol uchun: **S5** - bu **S** ustun va **5** qatordagi kesishuv joyidagi katak adresi.

Ishchi kitob darchasining quyi qismida ishchi varaqlar yarliklari (**ярлыки рабочих листов**) joylashgan bo'lib, ular orqali ishchi kitobdagagi kerakli varaqlar tanlanadi. Odatda yarliklar «**Лист1**», «**Лист2**» va hakazo kabi belgilanadi.

**Quyidagi termnnlar:** *fayl, ma'lumot, formula, funksiya, diagram-*

ma va *istogrammalar* Excel da eng harakterli terminlari hisoblanadi.

**Misol uchun:** Ishchi kitoblarning nomlari fayl ko'rinishida ko'rildi va ishchi kitobni ochish uchun fayl menusidagi **Otkryt** punktiga o'tish zarur.

**Формула** - bu katak va operatorlardagi ma'lumot qiyamatlarining kombinatsiyasidan iborat. U sonli kattalik va arifmetik operatsiyalardan tashkil topadi. Sonli kattalikdan tashqarii, argument o'rniga katak, funksiya yoki boshqa formula kirishi mumkin. Formulaga misol: **V/K8\*U8**. Formula terilayotganda, avval formula kataknini o'zida, hamda yuqoridaga panelda yozilib boradi, katak aktivlashganda esa formula asosan yuqoridagi panelda qoladi.

Diagramma va histogramma yordamida jadval shaklidagi

The screenshot shows a Microsoft Excel window titled "Microsoft Excel - метод.xls". The menu bar includes "Файл", "Правка", "Вид", "Вставка", "Формат", "Сервис", "Данные", and "Окно". The toolbar contains various icons for file operations, cell selection, and data manipulation. The ribbon tabs include "Лист1", "Лист2", and "Лист3". The formula bar shows the cell reference "C4". The main worksheet area displays the following data:

	A	B	C	D
1	Ноль			
2	Отчет о продажах			
3		Рабочий		Строка
4	/	ЯНВ.		
5	Строка		Столбец	Ячейка
6	Монеды	400		
7	Скейты	1000		
8	Всего	3150		
9				
10				
11				
12				

Annotations in the diagram:

- A line points from the word "Строка" to the row number "1" in the first column.
- A line points from the word "Столбец" to the column letter "A" in the first row.
- A line points from the word "Ячейка" to the cell "C4" in the third row and fourth column.
- A line points from the word "Рабочий" to the cell "B3" which contains the value "ЯНВ."

Ma'lumotlarni katakga kiritish uchun uni aktivlashtirish (faollashtirish) joiz. Bu amal mo'sh (sichqon) yoki klaviatura yordamida bajariladi.

Sichqondan foydalanilganda, kataknini aktivlashtirish uchun, sichqondan katak ustiga sichqon ko'rsatkichi keltirilib, chap tugmasi chiqqillatiladi.

Boshqa kataklarga o'tish uchun, strelka klavishlari yoki **<Page Up>va <Page Down>** klavishlaridan foydalansa bo'ladi. Yangi joyga o'tishga ishlatiladigan klavishlar 1 jadvalda taqdim etilgan.

## 1-Jadval EXSELda klavishalarning bajaradigan amallari

Klavishlar	Бажарадиган иши
<□>, <□>, <□>, <□>	Chap, o'ng, yuqori va pastga bir katakga suriladi
<Ctrl>+<□>, <□>, <□>, <□>	Keyingi bo'sh bo'lgan katakga suriladi.
<End>+<□>, <□>, <□>, <□>	Keyingi bo'sh bo'lмаган katakga suriladi.
<Tab>	Bir katak o'ngga suriladi.
<Enter>	Bir katak pastga suriladi
<Shift>+ <Tab>	Bir katak chapga suriladi
<Shift>+ <Enter>	Bir katak yuqoriga suriladi
<Home>	A ustunidaga aktiv katakga suriladi.
<Ctrl>+ <Home>	Ishchi varaqning A1 katagiga suriladi.
<Ctrl>+ <End>	Ishchi varaqdagi eng so'nggi ishlatilgan katakga suriladi.
<PageUp>	Bir ekran yuqoriga suriladi.
<PageDown>	Bir ekran pastga suriladi.
<Alt>+<PageUp>	Bir ekran chapga suriladi.
<Alt>+<PageDown>	Bir ekran o'ngga suriladi.
<Ctrl>+<PageUp>	Keyingi ishchi varaqqa suriladi.
<Ctrl>+<PageDown>	Avvalgi ishchi varaqqa suriladi.

To'g'ridan to'g'ri konkret katakga o'tish uchun, formulalar qatorining chap tomonidagi **поле имен** qismiga kerakli katak adresini kiritish mumkin.

## **2. Hujjatlarni tahrirlash va bosib chiqarish.**

### **2.1. Ma'lumotlar kiritish.**

Katakga ma'lumot kiritish lozim bo'lganda, avval u aktivlashtiriladi, so'ngra mazkur katakga tekst, kun, sana, vaqt yoki formula kirishi mumkin. Katakdagi ma'lumot turi kiritilayotgan vaqtida avtomatik tarzda aniqlanadi. Agar ma'lumotni son ko'rinishida ifoda etish zarur bo'lsa, **EXCEL** avvaliga shunday tushunadi. Aks xolda ma'lumot matni deb tushuniladi.

Formulalar kiritish <>> belgisi bilan boshlanadi.

**Tekst(matn) va son kiritish.** Ma'lumotlarni kiritish to'g'ridan to'g'ri joriy katakga yoki formulalar qatoriga (stroka formul)ga bajariladi. Kiritish joyi matnli cursor bilan belgilanadi. Agar alfavit sonli klavishlar bosish bilan ma'lumotlarni kiritish boshlansa, joriy katak kiritilayotgan matn bilan almashtiriladi.

Agar formula qatorida sichqon bilan chiqqillatilsa yoki joriy katak ustida ikki marta sichqon chiqqillatilsa, u xolda katakdagi eski ma'lumot o'chib ketmaydi va uni tahrirlash imkoniyati paydo bo'ladi. Kiritilayotgan ma'lumotlar har bir xolda ham katakda, hamda formula qatorida ifodalanadi.

**Ma'lumotlar qatorini kiritish.** Budget tuzish yoki prognoz qilishda ko'pincha regulyar ketma-ketlikda sana, son va matnlar qatorini kiritish zarur.

**EXCEL** bu ishni bajarishni **Автозаполнение** vositasidan foydalanish bilan yengillashtiradi.

**Автозаполнение** vositasini qo'llash hisobiga son, sana, vaqt va kalit so'zlar, hamda kunlar, oy nomlari va ular qisqartmalarini farqlab aniqlaydi.

Qiymatlar qatori ikki usulda hosil qilinadi:

**Автозаполнения** yordamida yonma-yon kataklar diapozonini qator qiymatlar to'ldirish uchun 2-ta usul mavjud:

1-usulda ko'rيلayotgan birinchi katakga qiymat kiritiladi. So'ngra **Автозаполнения** markerini diapozondagi kataklarga ko'chirilsa(sudralsa), qator qiymatlari paydo bo'ladi. Agar qator qiymatlari katakdan katakga to'ldirib borilsin desangiz **<Ctrl>** klavishasini bosib turing.

2-usul    «Правка, Заполнить, Прогрессия» yordamida

kataklarni qator qiymatlar bilan to'latish imkoniyati ko'proq hisoblanadi. Bu usulda birinchi katakga sana yoki kun qiymati kiritib, so'ng kerakli diapozonni belgilaysiz. **«Правка, заполнить, Прогрессия»**. Buyruqlarini ketma-ket bajarilsa, **«Прогрессия»**, dialog darchasi ekranda paydo bo'ladi. U yerda esa qanday qator hosil qilishni ko'rsatsangiz bas, buning uchun, sichqonni o'ng tugmasi kerakli katak ustida bosiladi va "**Выбор из списка**" menusidan foydalanasisz.

## **2.2. Katak va diapozonlarni belgilash.**

Belgilangan diapozon ustida barcha kataklar bir vaqt ichida formatlash, shuningdek **Автоворчисление** vositasi yordamida bu kataklar summasi yoki o'rta qiymati (sredneye znacheniye) va boshqalarni amalga oshirish mumkin. Diapozon belgilash uchun quyidagi amallarni bajarish lozim. Biror bir intervaldagi kataklarni belgilash uchun, interval yuqorisidagi katakning bir burchagiga sichqonni chiqqillatib, intervalni qarama-qarshi burchagiga tortish kerak.

Bir-biriga bog'liq bo'limgagan kataklarni belgilashda, intervaldagi birinchi kataknini belgilab, **<Ctrl>** klavishasini bosgan holda ixtiyoriy katak ustiga sichqonni olib borib, chiqqillatish lozim.

Ustunni butunligigacha belgilashda ustun sarlavhasida, yaxlit qatorni belgilashda qator nomerida sichqon chiqqillatiladi. Bir necha ustun yoki qatorni belgilash uchun, shu ustun yoki qator sarlavhasi ustida sichqonni cho'zish lozim. Ishchi varaqni belgilash uchun, «**Выделить все**», tugmasi bosiladi. Bu tugma qator va ustun sarlavhalarining chap burchagidagi kesishmasida joylashgan bo'ladi.

## **2.3. Diapozon nomlari bilan ishlash.**

Formulalarni ko'rish va eslab qolishni osonlashtirish uchun bir necha kataklarga nom berish mumkin. Misol uchun + foyda summasi – harakat-summasi formulasidan darhol qanday berilganlardan ishlati- layotganini aniqlash mumkin.

Katak yoki diapozonga nom berish uchun:

Katak yoki diapozon belgilanadi, hamda formula qatorining (**строка формул**) chap tomonda joylashgan nom maydoniga (**Поле имен**) nom kiritiladi.

«**Вставка, Имя, Присвоить»** buyrug'i tanlanadi. Paydo bo'lgan «**Присвоение имени**» dialog darchasida diapozon beriladigan nom teriladi. Agar ishchi varaqda ustun va qator sarlavhasi mavjud bo'lsa, u holda unga formula orqali murojaat qilish yoki bog'langan katak nomlari ko'rinishida foydalanish ham mumkin. Undan tashqari, hosil qilinadigan turdag'i kataklar yoki kataklar guruhini turli ishchi varaqlarda ifoda etadi.

Diapozon albatta harf yoki tagiga chizish simvoli bilan boshlanib, nomning o'zga simvollari esa harf, son yoki tagiga chizish simvoli bo'ladi. Probel ishlatalish mumkin emas. Formulaga katak va diapozon nomi «**Вставка, Имя, Вставить»** buyrug'i tanlanadi va paydo bo'lgan dialog darchaga nom kiritish mumkin.

## **2.4. Kataklarni redaktorlash**

Kataklarni redaktorlashda uch xil holat ko'rildi.

Birinchisi - katak belgilanadi va uning ichidagi qiymatning o'rniga yangi qiymat kiritish mumkin. Bu qiymat eski qiymatni avtomatik tarzda almashtiradi.

Ikkinci xolat. Kataknı qiymatini redaktorlash uchun katak ustida sichqon ikki marta chiqqillatiladi va formula qatorida katak qiymatini tahrirlash mumkin bo'ladi.

Uchinchi xolat. Katak ichidagi qiymatni o'chirish uchun, kataknı belgilab <**DELETE**> klavishi bosiladi.

## **2.5. Kesish, nusxa ko'chirish va qistirish**

(Вырезание, копирование и вставка)

**Excel** programmasida kataklardan nus'ha ko'chirish va joyini

o'zgartirish **peretaskivaniye** (tortish) metodi yoki **almashish buferi** orqali amalga oshirish mumkin.

Kamroq kataklar bilan ishlanganda, birinchi metoddan foydalanish qulay, katta diapozonlar uchun esa – ikkinchisi ma'qul hisoblanadi. Joriy katak (belgilangan diapozon)ni peretaskivaniya metodi bilan nus'ha kiritish yoki joyini o'zgartirish uchun mazkur katak ramkasidan sichqon ko'rsatkichini qayd qilinadi, natijada ko'rsatkich # ko'rinishidan, strelka ko'rinishiga o'tadi.

Endi kataknı varaqning ixtiyoriy joyiga ko'chirish mumkin (qo'yildigan katak nomeri qalqib chiqadigan yo'l-yo'riqchada -podskazkada beriladi). Bu operatsiyani aniqroq bajarish uchun maxsus ko'chirish (**специальная перетаскивания**) foydalanish ma'qul. Mazkur operatsiya uchun sichqonning o'ng tugmasi bosiladi va mahsus menu paydo bo'lganda kerakli operatsiya tanlanadi.

Bufer orqali nusxa ko'chirish va kesish uchun diapozon belgilanadi. So'ngra «**Правка, копировать**» yoki «**Правка, Вставить**» yordamida diapozon o'zaro almashish buferiga joylanadi.

Keyingi amal: «**Правка, Вставить**» buyrug'ini bajarib ko'rsatilgan joydan boshqa buferga olingan diapazon bor o'lchami bilan tushiriladi. Ta'kidlash kerakki, ko'rsatilgan joydagi katak, diapozonning eng yuqoridagi chap qismiga mos keladi.

## **2.6.Katak, qator va ustunlar qistirish ( va yo'qotish)**

Ishchi varaqlar bilan ishlaganda, ko'pincha mavjud ma'lumotlar orasiga yangi katak ustunlari, qatorlarini ko'chishiga muxtojlik tug'iladi va o'z navbatida yangi katak ustun, qatorlari qistirilganda mavjud ma'lumotlar suriladi va qistirish uchun joy bo'shatib beradi.

Mazkur amallarni bajarish uchun mos ravishda «**Вставка, Столбцы**» («**Вставка, Строки**») buyruqlari tanlandi yoki sichqonning o'ng tugmasi bosilib, «**Добавить ячейки**» tanlanadi.

Bu buyruqlardan so'ng sichqon ko'rsatkichi o'ng tomonida ustun yoki uning pastida yangi bir qator paydo bo'ladi. Katak yoki diapozon qistirish uchun, belgilash bajarilgach, «**Вставка, Ячейки**» tanlanadi, «**Добавить**» menusi paydo bo'ladi, undan kerakli yo'nalish tanlansa, shu tarafga yangi kataklar qo'shiladi.

## **2.7. Ishchi varaqlar ustida amallar ( Манипулирование)**

Har bir ishchi kitob 3ta ishchi varaqdan iborat bo'ladi, biroq ishchi varoqlar sonini yo ko'paytirish, yoki kerakmas bo'lsa kamaytirish mumkin.

- Yangi ishchi varaq qistirish uchun «**Вставка, Лист**» buyrug'i bajariladi va aktiv varaq oldiga yangi varaq qistiriladi. Yoki mayjud ishchi varaq **nishoni** ustida (**EXCEL** darchasini eng pastki qismiga qaraladi) sichqonni o'ng tugmasini bosib «**Добавить**» menusidan «**Лист**» belgisini tanlanadi.
- Ishchi varaqnini o'chirish (olib tashlash) uchun «**Правка, Удалить лист**» tanlanadi. Yoki o'chiriladigan ishchi varaq nishoni(yarlyk) ustida sichqonning o'ng tugmasini bosilsa, menu paydo bo'ladi, undan «**Удалить**» tanlanadi. Ahamiyat berish kerak, ishchi varaq o'chirilsa uni qaytadan tiklash mumkin emas.
- Ishchi kitobdagi varaqlar o'rnini bemalol almashtirish mumkin. Buning uchun varaq yarligi ustida sichqonni chiqqillatish kerak, so'ng esa bosilgan sichqon tugmasini qo'yib yubormay, ishchi kitobni kerakli pozitsiyasiga olib borib tugmani qo'yib yuborish zarur. Shuningdek kontekst menuning «**Переместить/копировать**» buyrug'i tanlanadi.
- Ishchi varaqnini qayta nomlash ham mumkin, buning uchun uning nishoni ustida ikki marta chiqqillatasiz yoki kontekst menusining «**Переименовать**» buyrug'i olinadi.

## **2.8. Excel xujjatlarini bosib chiqarish.**

**Excel** ning elektron jadvallari ekranda tasviri bilan qog'ozga chiqariladigan ko'rinishi bir-biridan ancha farq qiladi. Shu tufayli bunday xujjatni **Предварительный просмотр** rejimiga o'tib (instrumentlar panelida mazkur tugma bor), qog'ozga bosiladigan material formatini (tasvirini) oldindan ko'rib olish imkoniyatiga ega bo'linadi. Ekranning yuqori chetida joylashgan tugmalar, bosiladigan varaq va pechat parametrlarini o'zgartirish imkonini beradi.

**Страница** tugmasi **Параметры страницы** dialog darchasini ochadi. Bu darcha orqali varaq parametrlari beriladi: varaq oriентatsiyasi, varaq mashtabi (masshtabni o'zgartirib bosib chiqarish,

varaqlarini sonini boshqarish mumkin bo'ladi), xujyatni o'lchamlari.

**Лист** ilovasida **EXCEL** to'ri, ustun va qator nomerlari yoqib yoki o'chirib qo'yiladi, shuningdek ishchi varaqlari bosma varaqdan, ham uzunlik, ham eni o'lchamlari bo'yicha katta bo'lgan holda qismlarga ajratish tartibi tanlanadi. Varaq maydonining qiymatlarini o'zgartirish, kataklar kengligini, bosib chiqarishda, oldindan(predvaritelnyy prosmotr) ko'rish rejimida **Поля** tugmasi yordamida o'zgartirish ham mumkin. Bu tugmani chiqqillatilsa, katak va varaq maydonlarining chegarasini ko'rsatadigan markerlar paydo bo'ladi.

**Область-печати** – ishchi varaqning bosmaga chiqariladigan qismi hisoblanadi. To'rtburchak shaklida bo'lib ishchi varaqning eng yuqori qismidan to barcha to'ldirilgan kataklardan iboratdir. Agar ma'lumotlarning bir qismini bosib chiqarish lozim bo'lmasa, bosib chiqariladigan qismni o'zingiz aniqlashingiz mumkin. Buning uchun bosib chiqariladigan qism belgilanadi va «**Файл, Область печати, задать**» buyrug'idan foydalaniladi.

Bosib chiqarish qismi berilsa, **EXCEL** programmasi faqat shu qismni oldindan ko'rish rejimida tasvirlaydi va faqat uni bosib chiqaradi. Bosib chiqarish qismi ishchi varaqda yirik punktir chiziqdagi (**разметка** rejimida esa uzlusiz chiziqdagi) ajralib turadi.

Boshqa bosma qog'ozlar chegarasi ishchi varaqda kichik punktlar bilan tasvirlanadi. Ayrim xollarda ba'zi kataklar birgalikda bir bosma qog'ozda joylashishi yoki teskari bosma qog'ozni bo'lib chiqarish, ishchi varaqning ma'lum joylarida yuz berishi so'raladi. Bunday imkoniyatlar bosma qog'ozlar chegarasini berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bosma qog'ozni ajratish, bo'lish uchun yangi qog'ozni boshi hisoblanuvchi kataknini aniqlab, belgilab, «**Вставка, разрыв страницы**» buyrug'i beriladi.


## **№ 1 laboratoriya ishi.**

### **Berilganlarni formatlash.**

**Maqsad:** Excel da ishlatalidigan berilganlarni asosiy turlarini o'rganish, kataklardagi berilganlarni formatlash operatsiyalari: jadvaldag'i qator enini, ustun balandligini o'zgartirish, shrift turini, o'lchamini, shaklini tanlash, katak ichini tekislashni, sonlar taqdim etishni tanlash, kataknini xoshiyalash(ramkaga olish) va uni rang bilan belgilash.

**1. Nazariy qism:** Elektron jadvalni yaratishda ishchi varaqni ma'lumotlarni to'ldirgandan so'ng, berilganlarni ko'rinishi e'tiborga loyiq qiyofaga keltirish, keyingi etap hisoblanadi. Ishchi varaqni elementlarini sozlash uchun formatlash vositasi hisolanmish turli shriftlardan shuningdek grafik obyektlar hosil qilish, katak **заливкалари** (tagranglari) uchun ranglar va uzorlardan foydalanish mumkin. Kataklani formatlash uchun: kataklar diapozonini ko'rsatiladi va «**Формат, ячеек**» dialog darchasi chaqiriladi. Bu darcha «**Формат, ячейки**» buyrug'i yordamida yoki «**Формат ячеек**» kontekst menusi, yoki «**Ctrl**»+«**1**» klavishlar kombinatsiyasini bosib chaqiriladi. Agar kataklar uchun oldindan sonli (**числовой**) format aniqlanmagan bo'lsa, ular umumiy (**общий**) formatdan foydalaniladi.Undan tashqari, kataklar uchun quyidagi formatlarni berish mumkin. **Числовой, денежный, финансовый, текстовой, процентный, дата** va boshqalar.

Shuningdek shaxsiy sonli format yaratish ham mumkin: «**Числовой**», «**Денежный**», «**Финансовый**», «**Процентный**» ва «**Экспоненциальный** » formatlarda o'nlik nuqtalarni sonini aniqlash va ba'zi xollarda manfiy sonlarni tashqi ko'rinishini sozlash parametrlariga ega. **"Общий" ва "Текстовый"** formatlari qo'shimcha parametrlar saqlamaydi. **Формат** panel instrumenti o'nlik nuqtadan keyin kelishilgani 2) o'nlik razradlar sonini va minglik ajratish bilan sonlar chiqarish imkonini beradi. Shuningdek manfiy sonlarni qizil yoki qora rangda taqdim etish mumkin.



2-Rasm. Formatlashtirish paneli.

«Формат» instrumentlar paneli yordamida (2-rasm) ko'pincha ishlataladigan "Денежный", "Финансовый" ва "Процентный" nomidagi sonli formatlardan qulay foydalanish mumkin. Pulli ifodalar qiymati nuqtadan keyin ikkita sifra va pul birligi belgisida taqdim etiladi. Ba'zan, sonli format aniqlangan kataklarda ### simvollari chiqadi. Bu ustun kengligi sonni ifodalash uchun yetarli emasligini bildiradi.

Sichqoncha yordamida ustun enini o'zgartirish uchun, sichqon ko'rsatkichini ustun sarlavhasini o'ng chegarasiga keltiriladi va sichqon ko'rsatkichi ikki yoqlama gorizontal strelka qiyofasiga kirdgach, bu ikki yoqlama strelkani o'ng tomonga, agar ustunni kengaytirish kerak bo'lsa, yoki chap tomonga, agar ustunni enini qisqartirish lozim bo'lsa suriladi. Shuningdek, "Формат, Столбец, Ширина" buyrug'i yordamida ustun enini o'zgartirish mumkin. **Excel** jadval ustunida o'zgartirishni qo'lida bajarishdan tashqari, konkret katakda qiyamatni to'liq ifodalanishi uchun ustun enini avtomatik tarzda sozlash imkonini beradi.

Bu quyidagicha bajariladi: ustun sarlavhasining o'ng chegarasida sichqon ko'rsatkichini keltirilib, chap tugmani ikki marta chiqqillatish kerak. Kataklarning balandligini o'zgartirish uchun ayniy amallar bajariladi.

**"Форматирование" ячеек" dialog darchasida "Выравнивание", "Шрифт", "Граница", "Вид" qo'shimchalari yordamida jadvallarni sarlavhalarini professional tarzda bezash mumkin.**

**Excelda Условное форматирование** vositasi paydo bo'ldi. U yordamida katak yoki blok, diapozi format (shrift, chegara, rang) bilan to'ldirish oson, katakda qabul qilingan qiymatga bog'liq ravishda uning formati o'zgaradi.

2. **Termin va tushunchalar.** Kataklarni formatlash, tenglashtirish, shrift, chegara, qiyofa, shartli format.

### 3. **Nazorat savollari.**

1. **Excel** da ishlataladigan, sonli formatlarni asosiy turlari?
2. Ustunning enini qanday qilib o'zgartiriladi?
3. "Uslovnoye formatirovaniye" nima degani?
4. Kataklarni birlashtirish qanday bajariladi?
5. Katakda matnni bir necha qator qaysi yo'lida joylashtirish mumkin?
6. Kataklarni nomerlash qanday amalga oshiriladi?
7. Sonli formatda son chegarasi qaysi o'lchamda o'rnatiladi?

## 1-лаборатория ишини бажаришга машқ

Yakka tartibdagi brokerlar faoliyatini hisoboti tuziladi (2-jadval). Jadvalni quyidagi namuna bo'yicha to'ldating. Zarar ko'rsatkichi bor kataklarni **qizil** rangda, zararni o'rnnini **полужирный курсав** shriftida belgilang.

2- жадвал

Акциялар сотиш						
Фирма	Брокер	Акция сони	Сотиб олиш курси	Жорий курс	Фойда/Зарар	
Микрософт	Ванда	21	161	175	294	
Эппл	Софа	23	388	501	2599	
Интел	Ник	30	201	225	720	
Циско	Дингра	15	270	255	-225	
Микрософт	Сиси	31	157	175	558	
Микрософт	Ванда	32	155	175	640	
Эппл	Боб	32	396	501	3360	
Микрософт	Сиси	33	150	175	825	
Интел	Дэн	35	223	225	70	
Интел	Ник	36	208	225	612	
Эппл	Боб	39	39	501	4290	
Эппл	Боб	42	395	501	4452	

Yechim.

1. **Excel** programmasini ishga tushiring va ishchi kitobni **book.xls** nomi bilan saqlang.
2. Yangi list(varaq) yarligida ikki marta chiqqilating va uni «**Aksiyani sotish»» deb qayta nomlang.**
3. **A1** katagiga jadvalning «**Aksiya sotish**» sarlavhasini kiriting va **Enter** klavishini bosing.
4. 2 qator ustun nomlari «**Firma**», «**Broker**», «**Aksiya sotish**», «**Sotib olish kursi**», «**Joriy kurs**», «**Foyda**» «**Zarar**» degan yozuvlarni kiriting.
5. 2- jadvalda berilgan ma'lumotlar bilan hosil qilayotgan jadvalni to'ldiring

6. **A1:F1** kataklarini cho'zish (**протягивание**) metodi bilan belgilang va «Формат, Ячейки» buyruqlarini bosing. **Выравнивание** qo'shimchasida esa **По центру** gorizontal tenglashtirishni bering. **Объединение ячеек** belgisini o'rnatting.
7. **Шрифт** qo'shimchasida **16** razmerli shrift punktini oling va **Начертание** ro'yxatidan **Полужирный** variantini tanlang. **OK** tugmasini chiqqillating.
8. **A2:F2** kataklari cho'zish metodi bilan belgilang va shu belgilangan maydon ustida sichqonni o'ng tugmasini bosing, qalqib chiqqan kontekst menusida **Формат ячеек** buyrug'ini tanlang. **Выравнивание** qo'shimchasida **По центру** gorizontal bo'yicha tenglashtirishni bering va **Переносить по словам** bayroqchasini o'rnatting.
9. **Шрифт** qo'shimchasida 14 razmerli shrift punktini bering va **Начертание** Rўйхатдан **Полужирный** variantini tanlang. **OK** tugmasini chiqqillating.
10. Instrumentlar panelida **Заливка ячеек** tugmasini bosing va sariq rangni tanlang.
11. **A1: F14** diapazonini cho'zish metodi bilan belgilang. Instrumentlar panelidagi **Форматирование** dan tashqari **Граница** tugmasini chiqqillating va bu kataklarga keng tashqi ramka bering (ochilayotgan politranning o'ng pastki burchagidagi tugma)
12. **A** va **V**, **V** va **S**, **S** va **D** ustunlari sarlavhalari oralig'idagi chegaralarda ikki martadan chiqqillating. Bu holda **A**, **V** va **S** ustunlari eni qanday o'zgarishiga ahamiyat bering.
13. Hosil qilingan jadval formati sizga ma'qulmi, ko'ring-chi? **Предварительный просмотр** tugmasini chiqqillatib, xujjatni bosib chiqarishdan avvalgi qiyofasiga nazar soling.
14. **F3:F14** diapazonini belgilang **«Формат, Условное форматирование»** buyrug'ini tanlang. **Условия 1:значение меньше или равно 0** shartini oling va **«Формат»** tugmasini bosing.
15. Paydo bo'lgan dialog darchasida, **Шрифт** qo'shimchasida **Начертание** – tanlanadi, undan **полужирный курсив** oling. **Вид** qo'shimchasida **Заливка ячеек** ichidan **красный** rangini tanlang va **OK** tugmasini chiqqillating.
16. **Book.xls** ishchi kitobini saqlab qo'ying.

## Mustaqil ish uchun mashqlar

**1.1 mashq.** Kitob magazinida kundalik kitob sotilish jadvalsi tuziladi. Buning uchun jadvalni quyidagi namunada to'ldiring.

3-Jadval

<b>Kitoblar sotilgan</b>				
<b>S a</b>	<b>J a</b>	<b>Shu jumladan</b>		
		<b>Ilmiy</b>	<b>Texnik</b>	<b>Badiiy</b>
<b>15 mart</b>	<b>523</b>	<b>150</b>	<b>200</b>	<b>175</b>
<b>16 mart</b>	<b>475</b>	<b>124</b>	<b>140</b>	<b>211</b>
<b>17 mart</b>	<b>350</b>	<b>104</b>	<b>96</b>	<b>158</b>
<b>18 mart</b>	<b>374</b>	<b>132</b>	<b>107</b>	<b>132</b>

**1.2. mashq.** Quyidagi jadvalni to'lating va formatlashtiring.

Kredit qaytarish rejasি				
O Y	Kredit summasining asosiy qarzi, ming so'm	Foiz to'lovi, ming so'm	Asosiy qarzning oylik to'lovi, ming so'm	Oylik to'langan vznos miqdori, ming sum
	1800			
1	1500	360	300	336
2	1200	300	300	330
3	900	240	300	324
4	600	180	300	318
5	300	120	300	312
6	0	60	300	306
Jami		126	1800	1996

1.3. mashq.A1:YE8 diapazoni ikki xonali sonlar ixtiyoriy sonlar bilan to'lating. Mazkur diapazonga quyidagicha format cheklab qo'yilgan: Agar son 10 dan 20 gacha chegarada bo'lsa,kursiv bilan; agar 20 dan 40 gacha bo'lsa, polujirnlyi kursiv bilan;Agar 40 dan katta bo'lsa, ko'k havorang fonda qizil rang bilan sonlarni kriting.

## №2 laboratoriya ishi.


### Grafik obyektlar bilan ishlash

**Maqsad.** Asosiy grafik obyektlar bilan tanishish.Excel da grafik obyektlarni kiritish va taxrirlashni o'rganish.

1. Nazariy qism. Excel grafik obyektlarni osongina hosil qilish va ular parametrlarini o'zgartirish imkoniyatini Beradi.EXCEL da rasm chizish instrumentlari to'plami yordamida aylana, kvadrat va to'rtburchaklarni ishchi varaqda hosil qilish, bu bilan jadval qiyofasini boyitishi mumkin.

### 2-rasm. "Рисование" paneli.

Grafik obyektlar instrumentlar panelidagi «Рисование» yordamida (2 rasm) hosil qilinadi. Grafik obyekt hosil qilingach ularni boshqa joyga ko'chirish, hamda o'lchamlarini o'zgartirish mumkin. Matn formatlashdagi singari rang,uzor va ramkalarni tayinlab, grafik obyektni tashqi qiyofasini o'zgartirsa bo'ladi. Buning uchun «Рисование» panelidagi munosib tugmalar bosiladi. Obyektni tezda formatlash uchun, uning



ustiga sichqon ko'rsatkichini keltiriladi.

Sichqon ko'rsatkichi egilgan strelka ko'rinishini olsa, sichqon chap tugmasini ikki marta chiqqillatiladi, «Формат автофигуры» dialog darchasi ko'rinaldi. Boshqa bir yo'li «Ctrl»+«1» klavishi birga bosiladi.

Grafika va rasmlarni bir nechta alohida obyektlardan ham hosil qilish mumkin. Bir nechta obyektlar bilan bir vaqtida ishlash uchun,

barcha obyektlar yoki nus'halarini boshqa joyga o'tkazib, ularni birlashtirib, bitta murakkab obyektni formatlash mumkin bo'ladi.

**EXCEL** ishchi varaqda matnlar abzatslariga turli nadpisi (yozuvlar) joylashtirish imkoniyati bor. Ishchi varaqdagi har qanday grafik obyekt kabi, yozuvlar o'lchamini o'zgartirish, siljitim va formatlash mumkin. Formatlashni bor matndagi yozuvga yoki alohida so'zlarga qo'llasa ham bo'ladi. Boshqa programma va fayllardagi rasmlar va skanerdan o'tkazilgan fotografiyalarni qistirish imkoniyati bor. Boshqa programmadan rasm qistirish uchun **«Вставка»** menюсидан "**Рисунок**" so'ngra "**Из файла**" buyrug'ini tanlang. **Clip Gallery** nus'hasi o'rnatilgan bo'lsa, kitobga kartinkalar qistirish uchun "**Вставка, Рисунок, Картинки**" buyrug'idan foydalaning (bu buyruqlar aslida menudan ketma-ket tanladi, **Вставкани** bossangiz, osilgan menuda **Рисунок** bor, yonida strelka belgisi, yana tanlang deb ishora qiladi, bossangiz **Картинки** paydo bo'ladi.).

Ekranda rasm belgilanganda "**Настройка изображения**" instrument paneli paydo bo'ladi, bu panel tasvirni kesish, chegara qo'yish hamda kontrast va yorug'ligini sozlashga xizmat qiladi. Microsoft Office tarkibida **WordArt** vositasi bilan hujjatlarda figurali matnlar hosil qilish va qo'shish imkoniyati bor. **WordArt** dan foydalanib **TrueType** yoki **Adobe Type Manager** shriftlariga turli shakllar va bo'rtma effektlar beriladi. **WordArt** dan foydalanish uchun, "**Вставка, Рисунок, Объект WordArt**" buyrug'ini tanlash zarur yoki "**Рисование**" instrumentlar panelida **WordArt** tugmasini bosing.

### **Terminlar va tushunchalar Nazorat savollar**

1. Excel da ishchi kitobga rasm qanday qistiriladi?
2. Figurali matnni qaysi yo'sinda hosil qilinadi?
3. Grafik obyektlarni nima uchun birlashtirish kerak?
4. Keng hajmi grafik obyektlar hosil qilish.
5. Figurali matnni ranggini o'zgartirish qanday bajariladi?
6. Boshqa formatda yozilgan rasmlarni qistirish mumkinmi?

### **Nº2 Laboratoriya ishini bajarishga mashq.**

Aeroflot kompaniyasini logotipini ishchi varaqqa joylashtirish lozim.



Yechim.


1. **Excel** programmasini ishga tushuring, avval xosil qilingan **book.xls** ishchi kitobini oching.
2. Yangi varaq yarliki ustida ikki marta chiqqillating va uni «**Rasmcha**» deb nomlang.
3. **Стандартная**" instrumentlar panelidagi "**Рисование**" tugmasini bosing: "**Рисование**" instrumentlar panelini chiqarish uchun. Bu panel **Excel** darchasining pastida paydo bo'ladi. 
4. Instrumentlar panelida "**Прямоугольник**" obyektini tanlang. Ishchi varaqni rasm chizish boshlanadigan joyga sichqon ko'rsatkichini keltiring (sichqon ko'rsatkichi ingichka xoch qiyofasini oladi). Sichqonning chap tugmasini ushlab turing, uni to'rtburchak o'lchamlarini o'rnatish uchun cho'zing.
5. To'rtburchakni belgilash uchun ustida chiqqillating. Belgilangan obyekt chegarasida uning o'lchamlarini o'zgartirish uchun xizmat qiluvchi markerlar paydo bo'ladi. Sichqon ko'rsatkichini biror-bir markeriga keltiring va ko'rsatkich ikkilangan strelka qiyofasini olgach, figura o'lchamini o'zgartiring.
6. "**Рисование**" panelida ochiladigan "**Цвет заливки**" Ro'yxatida chiqqillating va "**Синий**" rangini tanlang. Ochiladigan "**Цвет линий**" Ro'yxatida chiqqillating va "**Темно-синий**" rangini tanlang. Ochiladigan "**Тип линии**" Ro'yxatidan **3 pt** qalilligini tanlang.
7. To'rtburchakdan belgilashni olib tashlash uchun ishchi varaqning bo'sh joyida chiqqillating.
8. "**Рисование**" panelida "**Овал**" obyektini tanlang va to'rtburchakning yuqorisida oval chizing.
9. Ovalni belgilang va uning o'lchamlarini rasmdagi kabi o'zgartiring(Oval - tuxumsimon shakl).

10. <Ctrl>+ <1> klavishlarini bosing. "Формат автофигуры" dialog darchasi paydo bo'ladi. "Цвета и линии" qo'shimchasidagi "Заливка" Ro'yxatidan "Слоновая кость" rangini tanlang."Линия " Ro'yxatidan "Цвет"- Коралловый", "Тип линии"- 3 pt tanlashlarni bajaring.
11. «**Прямоугольник**» obyektini chiqqillating va ovalning o'ttasida to'rtburchak chizing.
12. Mazkur to'rtburchakni belgilang va sichqonning o'ng tugmasini chiqqillating. Paydo bo'lgan kontekst menuda "Формат автофигуры" punktini tanlang."Цвета и линии" qo'shimchasida "Заливка" Ro'yxatidan "Светло-бирюзовый" rangini tanlang "Линия " Ro'yxatidan "Цвет"- Темно-синий", "Тип линии"- 1pt larni ketma-ket tanlang.
13. Ochiladigan "**Автофигуры**" Ro'yxatidan "**Звезды и ленты**" ni tanlang va undan so'ng "**Волна**" obyektini tanlang. Bu obyekt uchun quyidagi xususiyatlarni bering: "Заливка" - "**Бледно - зеленный**", "Цвет линии" - "**Зеленый**", "Тип линии"-  $2\frac{1}{4}$  pt.
14. "**Рисование**" panelidan "**Добавить объект WordArt**" tugmasini chiqqillating. Yozuv uchun birinchi stil(uchun) tanlang va <OK> tugmasini bosing. Keyingi "**Изменение текста WordArt**" dialog darchasida "**tel. 134-54-17**" tekstini kiriting. <OK> tugmasini chiqqillating.
15. **WordArt** panelida "**Форма WordArt**" tugmasini bosing "**Волна1**" formasini tanlang, yozuvlar o'lchamini shundek o'zgartiring-ki, u "**Волна**" obyektiga joylashsin.
16. "**Вставка, Рисунки, Картинки**" buyrug'ini tanlang. Paydo bo'lgan dialog darchasida "**Графика**" qo'shimchasidan "**Транспорт**" Ro'yxatidan samolyot tasvirli rasmni tanlang "**Вставить**" tugmasini bosing. Rasm o'lchamlarini shunday o'zgartiring-ki, uni och moviy rangli to'rtburchakka joylang
17. Rasm ustida sichqonning o'ng tugmasiga chiqqillating va "**Формат рисунка**" punktini tanlang. Paydo bo'lgan dialog darchasining "**Цвета и линии**" qo'shimchasining "**Заливка**" - "**Нет заливки**" "**Линии**"- Ro'yxatidan "**Нет линии**" bandlarini tanlang. Rasmni to'rtburchakka joylashtiring.
18. "**WordArt**" tugmasini chiqqillating va yozuvni **10 stilini** tanlab, «**Artwolfs**» matnini kiriting.

19. "**WordArt**" panelida «**Форма WordArt**» tugmasini bosing va «**Мостик вверх**» formasini (shaklini) tanlang.Yozuvlar o'lchamlarini shunday o'zgartiring-ki, u oval obyektida samolyot tasvirining yuqorisida joylashsin.
20. «**WORDArt**» panelida "**Формат объекта WordArt**" tugmasini chiqqillating. "**Цвета и линии**" qo'shimchasining "**Заливка**" Ro'yxatidan "**Изумрудный**" rangi, "**Линия**" Ro'yxatidan "**Зеленый**" rangini tanlang
21. «**Shift**» klavishini bosgan xolda ushlab, har bir hosil qilingan obyekt sichqonning chap tugmasini chiqqillating. "**Действия**" tugmasini bosing va "**Группировать**" buyrug'ini tanlang.**Excel** belgilagan obyektlarni bittaga birlashtiring.
22. **book.xls** ishchi kitobni saqlab qo'ying.

**Mashqlar.  
Quyidagi rasmlarni hosil qiling.**

1.



2.

**Nº3 - Laboratoriya ishi.  
Formulalardan foydalanish.**

**Maqsad.** Formulalardan foydalanish, absolut va nisbiy bog'liqliklar  
(havolalar)

**1.Nazariy qism.**

**Excel** programmasidagi jadvallarda hisoblashlar formulalar yordamida amalga oshiriladi. Formulalar matematik operatsiyalar belgilari bilan bog'langan sonli konstantlar, kataklar, havolalar va **Excel**

funksiyalarni saqlashi mumkin. +avslar bajaradigan amallarni standart tartibini o'zgartirish imkoniyatini beradi. Agar katak formula saqlasa, u xolda mazkur formulani hisoblangan natijasi ishchi varaqda aks etadi. Agar formula saqlanayotgan katak faollashtirilsa, **строка формула** qatorida namoyon bo'ladi.

Formulani kiritish (q) barobar belgisi bilan boshlanishi zarur.

Formula havolalar saqlashi mumkin, ya'ni boshqa formulalar adresini. Bu holda mazkur kataklar ichidagi hisoblashlar bu formula bilan bog'liq katakga ham tegishli bo'ladi. Formula hisolashlardagi natija boshqa katakdagi songa bog'liqligini bildiradi.

Shunday qilib, formula saqlaydigan katak bog'liq hisoblanadi. Ya'ni, formula saqlaydigan katak qiymati, havola ko'rsatadigan katakdagi qiymat o'zgarishi bilan qayta hisoblanib ko'rildi.

Katakga havolani ikki yo'lda berish mumkin: terib kiri-tish yo'li va ishchi varaqdagagi katakga ko'rsatish yo'li bilan. Birinchi holatda, hisoblanadigan katak ustida havola kiritiladi, bu yo'lda xatolar yuz berishi mumkin, ikkinchi yo'lda kerakli katakga sichqon yordamida ko'rsatiladi. Avvaldan kelishilganidek, formuladagi katakga havola nisbiy deb ko'rildi. Bu quyidagini bildiradi, agar havola adreslari formulalarini nus'halari hosil qilinsa, berilgan katakga nisbatan nus'halardagi formulalar ham mos ravishda o'zgaradi.

Misol uchun: **V2** katagida **A1** katagiga havola bo'lsin. Shunday qilib, havola bitta katak chapga va bir katak yuqoriga bog'langandir. Agar formulani boshqa bir katakga nus'hasi ko'chirilsa, u holda mayjud nisbiy havolaga ko'rsatish saqlanadi. Ya'ni, misol uchun **YE27** katakga nus'hasini ko'chirsangiz, havola bir katak chap va bir katak yuqoridagi **D26** katagiga ko'rsatadi.

Absolut adreslashda esa havola adresi nus'ha ko'chirganda ham o'zgarmaydi.

Formulani tahrirlashda adreslashni usulini o'zgartirish uchun havolali kataknini belgilab, **F4** klavishini bosing. Absolut adreslashdan foydalanuvchi katak nomeri oldida \$ belgisi turishi kerak. **F4** klavishi bosilsa, turli havola variantlari taklif etiladi.

## **2. Terminlar va tushunchalar**

### **Formulalar, nisbiy havolalar, absolut havolar**

### **3. Nazorat savollar.**

1. Katakga formula kiritish tartibi.
2. Formulalarda arifmetik operatsiyalar(amallar) qaysi qoida asosida bajariladi?
3. Formulalarda havolalar qanday beriladi?
4. Nisbiy havola nima?
5. Absolut havola nima?
6. Absolut havola qanday hosil qilinadi?

**Nº3-laboratoriya ishini bajarishga mashq.**  
**Formulalardan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldiring.**

**4-Jadval**

O'icha mlar natijas i	Ikki- langan qiymat	Kvadrat qiymat	Keyingi qiymat kvadrati	Masshtab ko'payt- masi	Masshtabl ashti-rish
12	24	144	169	5	60
...	...	...	...		...
25	50	625	676		125

Yechim:

1. **Excel**, programmasini ishga tushiring, **book.xls** ishchi kitobini oching.
2. Joriy ishchi varaq yarlikida chiqqillating va bu ishchi varaqqa «**Ma'lumotlar**» degan nom bering
3. Joriy katak deb **A1** ni tanlang va unga «**O'Ichamlar natijalari**» sarlavhasini kriting.
4. A ustundagi ketma-ket kataklarga, **A3** katakdan boshlab ixtiyoriy sonlar kriting.
5. B1 katagiga «**Ikkilangan qiymat**» qatorini kriting.
6. **C1** katagiga «**Kvadrat qiymat**» qatorini kriting.
7. **D1** katakga «**Keyingi qiymat kvadrat**» qatorini kriting.
8. **V2** katagiga  $q2 * A2$  formulasini kriting
9. **S2** katagiga  $qA2 * A2$  formulasini kriting

10. **D2** katagiga **qV2+S2+1** formulasini kriting
11. **V2, S2 va D2** kataklarini cho'zish bilan belgilang.
12. Belgilangan diapazonning o'ng pastki ramka burchagidagi to'ldirish markeriga sichqon ko'rsatkichini keltiring. Sichqonning chap tugmasini bosing va ushbu markerni shunday torting-ki, **A** ustunida qancha son bo'lsa, **V, S**, va **D**, ustundagi shuncha qatorlarni egallasin.
13. Iqror bo'ling-ki, formulalar avtomatik tarzda modifikatsiyalashib, **A** ustuning joriy qatoridagi katak qiymati bilan ishlasin.
14. A ustundagi biror bir qiymatini o'zgartirib iqror bo'ling-ki, **V, S** va **D** ustunlarining shu qatordagi mos qiymatlari avtomatik qayta hisoblansin.
15. **YE1** katakga **Masshtab ko'paytmasini** qatorini kriting.
16. **YE2** katagiga **5** sonini kriting.
17. **F1** katagiga **Masshtablashtirish** qatorini kriting.
18. **F2** katagiga **A2\*YE2** formulasini kriting.
19. **Avtozapolneniya** metodidan foydalaniib, **F** ustuni kataklariga, **A** ustunidagi kataklarni to'ldirgan formulalar nus'hasini hosil qiling.
20. Masshtablashtirish natijasida noto'g'ri bo'lganiga ishoch xosil qiling-ki, bu natija **F2** adresi nisbiy havola bilan berilganligi tufaylidir
21. **F2** katakda chiqqillating, so'ngra formula qatori (stroka formula) ustida chiqqillating **YE2** havolasi ustiga matnli kursorni o'rnatiting va **F4** klavishini bosing. Formula **qA2\*\$E\$2** ko'rinishini olganiga ishonch hosil qiling va **Enter** klavishini bosing.
22. **F2** katagidagi formula bilan **F** ustunini to'ldirishni qaytaring.
23. **Absolut adreslashtirishdan** foydalanilganligi tufayli **F** ustuni kataklari qiymati to'g'ri hisoblanayotganiga ishonch hosil qiling.
24. **book.xls** ishchi kitobini saqlab qo'ying.

## **Машқлар**

### **3.1. mashq.**

Personallar va ularning maoshlari Ro'yxati bor. Har biriga 20% mukofot belgilash kerak. Biroq, shunday hisoblash kerak-ki, agar mukofot o'zgarsa, qayta hisoblash mos ravishda yuz berishi kerak.

51-jadval.

	<b>Familiya I.SH.</b>	<b>Maosh</b>	<b>Mukofot</b>
1	Imamov I.I.	200	
2	Faxritdinov P.P.	220	
3	Sidorov S.S.	180	
4	Antonov A.A.	140	

**3.2. mashq.Hershev Food corparation** kompaniyasining 1982-87-yillar sotuv ma'lumotlari bor.

6-jadval.

<b>Hershey kompaniyasi</b>	<b>Food</b>	<b>Corporation</b>
<b>Sotuv ma'lumotlari (mln. doll.)</b>		
<b>1983</b>		<b>1566</b>
1983		1663
1984		1848
1985		1996
1986		2170
1987		2434

Yildagi nisbiy o'sishni hisoblang (joriy yil hajmini avvalgi yilga nisbatan) va absolut o'sishini (joriy yil hajmini 1982-yilga nisbati. Hisoblashlar foizda o'nlik nuqtadan bir raqam aniq sonda ifodalanishi kerak. Ishchi varaqda stolbik diagramma quring(yillar - sotilish hajmi).

**3.3.mashq.«Alfa», «Pluton» va «Rubin»** uch zavodda avariylar bo'lib turadi. Ishchi varaqda yillar bo'yicha avariylar to'g'risida ma'lumotlarni joylashtiring.

	A	V	S	D
		Alfa	Pluton	Rubin
1	1991	2	0	3
2	1992	1	2	1
3	1993	2	3	0
4	1994	1	2	1

1. Yillar bo'yicha avariyalarni yakuniy sonini hisoblab ko'ring.

2. **A8:E12** kataklariga avariya foizlarini joylashtiring, joriy yildagi avariyalarni **100%** hisoblang.

3.Avariyalar to'g'risidagi ma'lumotlarga asosan histogramma quring: qiymatlar o'rniaga avariyalarni sonini, hamda kategoriyalarni yillarga almashtirib bajaring.

#### **3.4.mashq.** Avvalgi mashq uchun.

1.Korxonalar bo'yicha jami avariyalarni hisoblang.

2. **A14:D19** kataklariga avariyalarni foizlarini joylashtiring, joriy yildagi avariyalarni 100% hisoblang.

3.Avariyalar to'g'risidagi ma'lumotlarga asosan histogramma quring: qiymatlar o'rniaga avariyalarni sonini, hamda kategoriyalarni korxonalarining nomina almashtirib bajaring.

### **Nº4. Laboratoriya ishi. Funksiyalardan foydalanish.**

**Maqsad.** Funksiya tushunchasini o'rganish. Funksiya masteridan foydalanishga o'rgatish.

1. **Nazariy qism.EXCEL** da **300** ga yaqin funksiyalar bor.Ular yordamida turli tuman masalalarni yechish mumkin. Funksiyani chaqirish uchun formulada funksiya nomi (**Imeni funksii**) ko'rsatiladi, qavslarda esa uning parametrlari Ro'yxati (spisok parametrov) ta'kidlanadi.

Alovida parametrlar nuqta vergul orqali Ro'yxatda ajratiladi. Parametr sifatida son, katak adresi yoki ixtiyoriy ifoda ishla-tiladi, undan tashqari funksiya ham ishlatalish mumkin.

**Палитра формул** dialog darchasini ifodalab, formula kirishini tezda tamomlasangiz, shu qiymatga ega bo'ladi.

Formula qatorining chap tomonida, avval joriy katak nomeri joylashgan yerda, endi funksiyalar Ro'yxati namoyon bo'ladi.U o'nta funksiya saqlaydi, Bular eng so'ngi ishlataligan funksiyalar hisoblanadi., shuningdek **Другие функции** punktidan iborat.

**Другие функции** punkti tanlanganda **Мастер функций** ishga tushadi. Bu master kerakli funksiya tanlashni osonlashtiradi.

Kategoriya Ro'yxatida, funksiyaga tegishli kategoriya tanlanadi (agar kategoriyanı tanlash qiyin bolsa **Полный алфавитный нереченый** punktidan foydalanilsa bo'ladi). **Okni** bossangiz formula qatoriga funksiya nomi parametrlar Ro'yxati qavslari bilan namoyon bo'ladi. Matnli kursor qavslar oralig'iga o'rnatiladi.

Funksiya parametrlarini kiritishda **палитра формул** ko'rinishini o'zgartiradi. Unda parametrlar kiritishga mo'ljallangan maydon aks etadi. Agar parametr nomi yarim qalin shriftda aniqlangan bo'lsa, parametr majburiy bo'ladi va mos joyi to'ldirilishi lozim.

Oddiy shriftlarda terilgan parametr nomlarini tushirib qoldirish mumkin.

### **3. Terminlar va tushunchalar**

Funksiyalar,funksiyalar parametrlari, funksiya palitralari, master funksiyalar(funksiya masteri).

### **4. Nazorat savollar.**

1. Funksiya parametrlari sifatida qanday foydalanish mumkin?
2. Funksiyani chaqirish qanday amalga oshiriladi?
3. "Palitra funsiy"? nima degani?
4. Matematik funksiyalarga qaysilari kiradi?
5. Standart funksiyalar soni?
6. Funksiyalar argumentlari turlari?
7. Funksiyalar turlari?

### **4. №4 laboratoriya ishini bajarishga mashq**

Oldingi laboratoriya ishining berilganlarini summasi, o'rta qiymatini,

eng katta va eng kichik qiymatini, elementlar sonini aniqlang.

## **Yechim**

1. **Excel** programmasini ishga tushiring va **book.xls** ishchi kitobini oching

2. **Ma'lumotlar** matnini tanlang.

3. **A** ustundagi birinchi bo'sh kataksini joriy deb tayinlang.

4. Standart instrumentlar panelida **Avtosumma**  $\Sigma$  tugmasini chiqqillating.

5. Ishonch hosil qiling-ki, programma avtomatik tarzda formulaga **SUMM** funksiyasini qo'ygan va yig'indini(summa) hisoblash uchun kataklar dipazonini to'g'ri tanlangan bo'lsin. **Enter** klavishini bosing.

6. **A** ustunidagi keyingi bo'sh kataksini joriy deb tayinlang.

7. **Вставка функция** tugmasini chiqqillating (standart instrumentlar panelida)



8. Kategoriya Ro'yxatidan staticheskoye puntini tanlang.

9. **Функция** Ro'yxatidan **СРЗНАЧ** funksiyasini tanlang va **OK** tugmasini chiqqillating.

10 Kerakli kataklarni to'sgan holda,formulalarning yoymasi paydo bo'ladi.E'tibor bering avtomatik tanlangan diapazon barcha sonli kataklarni, shu jumladan summa hisoblanganini ham o'ziga kiritgan. Shuning uchun yoki formula bu katakn nomerini chiqarib tashlash lozim, yoki cho'zish metodi bilan kerakli kataklar belgilab **Enter** klavishini bosing.

11.6-10 punktlarda yozilgan amallar tartibidan foydalanib, berilgan to'plamning minimal soni (**МИН функция**), maksimal sonini (**МАКС**), to'plamdag'i elemenlar sonini (**СЧЕТ**) hisoblang.

12. **book.xls** ishchi kitobini hisoblang.

### **4.1.Mashq**

Uch yil davomida yong'irgarchilik miqdori (m.m larda) to'g'risidagi meteostansiya ma'lumotlari jadvali berilgan.

8-jadval

Yomg'ir yog'ish miqdori(mmda)			
	1992	1993	1994
Yanvar	37.2	34.5	8
Fevral	11.4	51.3	1.2
Mart	16.5	20.5	3.8
Aprel	19.5	26.9	11.9

May	11.7	45.5	66.3	
Iyun	129.1	71.5	60	
Iyul	57.1	152.9	50.6	
Avgust	43.8	96.6	145. 2	
Sentabr	85.7	74.8	79.9	
Oktabr	86	14.5	74.9	
Noyabr	12.5	21	56.6	
Dekabr	21.2	22.3	9.4	
				Uch yil uchun
Yig'indi	*	*	*	*
Maksimum	*	*	*	*
Minimum	*	*	*	*
O'rtacha oylik bo'yicha	*	*	*	*

## 4.2. Mashq

Avvalgi mashq asosida, quruq kelgan oylar ya'ni 10 mm dan kam miqdorda yomg'ir yoqqan oylar (**СЧЕТ ЕСЛИ funksiyasi**) hisoblansin.

Quruq kelmagan oylarda yoqqan yomg'irlar miqdorining yig'indisini hisoblang (**СУММ ЕСЛИ**)

9 жадвал

Quruq kelgan oylar soni				*
Quruq kelmagan oylardagi yomg'irgarchilik				*

## 4.3. Mashq

